d) terminlarning semantik va struktura jihatdan tahlili shuni koʻrsatdiki, baʼzi terminlar ikki til oʻrtasida toʻliq mos kelmaydi va milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olish zarur.

e) ekologik terminlarni oʻzbek tilida keng qoʻllash uchun yangi atamalarni yaratish va mavjudlarini standartlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Takliflar:

1. Terminologiyani standartlashtirish:

•ekologik terminlarni oʻzbek tilida yagona standart asosida ifodalash uchun maxsus terminologik qoʻllanmalar va lugʻatlar ishlab chiqilishi lozim;

•ingliz tilidagi terminlarni oʻzbek tiliga moslashtirishda xalqaro ekologik atamalarning mantiqiy va semantik mazmunini hisobga olish zarur.

2. Tarjima jarayonini takomillashtirish:

•ekologik terminlarni tarjima qilishda lingvistik izchillikni taʼminlash uchun tarjimonlar uchun maxsus qoʻllanmalar va oʻquv kurslari tashkil etilishi lozim.

•tarjima jarayonida terminlarning kontekstual mazmuni va madaniy xususiyatlarini hisobga olish uchun terminologik izohlar kiritilishi kerak.

3. Ilmiy-texnik matnlar tilini boyitish:

•ekologik terminologiyani oʻzbek ilmiy va texnik matnlariga keng joriy qilish orqali ushbu sohadagi ilmiy faoliyatni rivojlantirish mumkin.

•oʻzbek tilida ekologik atamalarning qoʻllanilishini kengaytirish uchun zamonaviy ilmiy maqolalar, darsliklar va ommaviy axborot vositalari orqali targʻibot ishlarini kuchaytirish lozim.

4. Ekologik savodxonlikni oshirish:

•jamiyatda ekologik savodxonlikni oshirish maqsadida ekologik terminlarni ommaviy foydalanishga moslashtirish va ularning tushunarli izohlarini yaratish muhimdir.

•ekologik masalalar boʻyicha oʻzbek tilida keng tushunarli atamalarni joriy qilish orqali ekologik muammolarga nisbatan ijobiy yondashuv shakllantirilishi mumkin.

5. Xalqaro tajribani oʻrganish:

•ingliz tilidagi ekologik terminlarni oʻzbek tiliga tarjima qilishda xalqaro tajribani oʻrganish va qoʻllash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda terminlarning lugʻaviy va semantik mosligini tahlil qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Abdullayev, X. Ekologiya asoslari. Toshkent, Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015, 25–35-betlar.

(2). Johnson, G., Smith, K. Environmental Terminology. A Comparative Study. Oxford: Oxford University Press, 2018, pp. 102–115.

(3). Brown, A. The Language of Science: A Lexical Perspective. New York, Cambridge University Press, 2017, pp. 78–92.

(4). Rasulov, M. Tilshunoslikda ixtisoslashgan leksika. Toshkent, "Yangi asr" nashriyoti, 2020, 45–60-betlar.

(5). Karimova, L. Oʻzbek tilida ekologik terminlar: shakllanishi va qoʻllanilishi. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2016, 33–50-betlar.

(6). Williams, J., Edwards, T. Ecosystem Terminology in Global Contexts. London, Routledge, 2019, pp. 120–140.

(7). Normatova, S. Ekoterminlarning lingvistik xususiyatlari. Toshkent, "Yangi asr", 2021, 15–25-betlar.

(8). Anderson, D., Lee, P. Translation Challenges in Environmental Science. Cambridge, Springer, 2018, pp. 98–112.

(9). Haydarova, K. Ekologiya terminlari va ularning tarjimadagi oʻziga xosliklari. Toshkent, "Ilm Ziyo", 2022, 50–70-betlar.

Mirzabaev Saparbek (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq Gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti; smirzabaev018@gmail.com)

QORAQALPOQ ESSE MATNLARIDA METONIMIYALARNING IFODALANISHI VA USLUBIY VAZIFASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qoraqalpoq tili metonimiyalarining badiiy asar tilida tutgan oʻrni, ularning ifoda xususiyatlari, matnlarda qoʻllanilishidagi uslubiy vazifalari haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotning predmetini qoraqalpoq tilidagi esse matnlari tashkil etib, ulardagi metonimiyaning lingvostilistik xususiyatlarini aniqlashda jahon va turkiy tilshunosligidagi fundamental teoremalar va soʻnggi ilmiy yangiliklar asos qilib olindi.*

Kalit so'zlar: *esse, troplar, metonimiya, metonimiya sematikası, stilistika.*

Мырзабаев Сапарбек (Каракалпакское отделение Академии наук Республики Узбекистан, Каракалпакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук)

ВЫРАЖЕНИЕ И СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ МЕТОНИМИИ В ТЕКСТАХ КАРАКАЛПАКСКИХ ЭССЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль каракалпакских метонимий в языке художественных произведений, их особенности выражения и стилистические функции в их использовании в текстах. Предметом исследования являются тексты эссе на каракалпакском языке, в определении лингвостилистических особенностей метонимии в них за основу были взяты фундаментальные теоремы и последние научные открытия в мировом и тюркском языкознании.*

Ключевые слова: *эссе, тропы, метонимия, семантика метонимии, стилистика.*

Mirzabaev Saparbek (Doctoral student of the Karakalpak Scientific Research Institute of Humanities Karakalpak Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan)

THE EXPRESSION AND STYLISTIC FUNCTION OF METONYMY IN KARAKALPAK ESSAY TEXTS

Annotation. *This article discusses the role of Karakalpak language metonyms in the language of literary works, their expressive features, and stylistic functions in their use in texts. The subject of the research is the texts of essays in the Karakalpak language, and in determining the linguostylistic features of metonymy in them, fundamental theorems and the latest scientific innovations in world and Turkic linguistics were taken as a basis.*

Keywords: *essay, tropes, metonymy, semantics of metonymy, stylistics.*

Kirish (Introduction). Odamlar o'rtasidagi muloqotni amalga oshiruvchi vosita–tilning va shu tilda yaratilgan har qanday badiiy asarning asosiy asosi so'z ekanligini Bulgakovning "So'z – bu eng asosiy kategoriya" [9;55-b.] degan fikri to'liq isbotlab turibdi. Bu fikrni boshchilik qilgan holda til jarayonining har qanday turida birinchi planda o'rganilishi kerak bo'lgan birlik – bu so'z deganimiz ma'qul bo'ladi. Chunki so'zlar yaxlit birlikning xarakteriga bog'liq turli ma'nolarda qo'llanib, o'ziga xos xususiyatlarni hosil qiladi. So'zlarga xos bo'lgan bunday xususiyatlar so'zlarning semantik ma'nolari bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham har qanday tilning so'z tarkibini semantik yo'nalishda tahlil qilishda so'zlarning kontekstda qo'llanilish holati va so'zning yakka qo'llanilish holatiga asoslanish kerak. Bu borada lug'at tarkibidagi har qanday so'z o'zining nomemalik va sememalik ma'nolariga ega bo'lib keladi. Ko'pchilik so'zlarimiz birgina semantik ma'no anglatish xususiyatiga ega bo'lib kelayotgan bo'lsa, bayon qilinayotgan fikrning mazmun-mohiyatiga, so'zlovchi (yozuvchi)ning tildan foydalanish mahoratiga ko'ra bir guruh so'zlarimiz bir necha semantik ma'nolarni anglatadi.

So'zlarning bunday bir necha sememik ma'nolarni anglatib kelishi uchun tilda maxsus vositalar qo'llanilib, ular, birinchidan, so'zlarning tildagi lug'at tarkibini boyitish uchun xizmat qiladi, shuning bilan birga, hosil qilingan yangi ma'nodagi semalar orqali bayon qilinayotgan fikrning go'zalligini oshirib, o'ziga xos bir stilistik xizmat bajarishga sharoit yaratib beradi. So'zlarning bunday yangi ma'nolarga o'tishida tilning badiiy vositalari xizmat qiladi. Tasviriy vositalar, o'z navbatida, troplar va stilistik figuralar degan turlarga ajratib o'rganiladi. Ayniqsa, troplar badiiy asar tilida so'zlarning obrazliligini oshirishda, emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini kuchaytirish uchun xizmat qiladi [8;21-b.]. Troplarning alohida bir turi–bu metonimiya, u so'zlar ma'nosining o'zgarishidagi ma'no o'zgarishiga asoslanadi-da, bosh belgi sifatida ikki predmet orasidagi bevosita aloqa yetakchilikka olinadi [2;78-b.].

Bizning bu ishimizda metonimiyaning qoraqalpoq tilidagi insho matnlarida ifodalanishi va uning esse matnlarini tuzishdagi stilistik vazifasi lingvistik jihatdan o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Troplar va uning turlarini umumiy tilshunoslik obyekti sifatida o'rganishning boshlanishi antik davrlarga borib taqaladi. Bu bo'yicha bildirilgan dastlabki fikrlar Aristotel va Platonlarning asarlarida bildirilgan deyishimiz mumkin. Keyinchalik, bu fikrlar Yakobson, Lakoff, Jonson kabi g'arb olimlari, shuningdek, V.V.Vinogradov, M.I.Fomina, A.A.Reformatskiy, Y.Vladimirova, Y.Apresyan, I.Artyunova kabi rus olimlari metonimiya va troplarning bir qancha turlari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. Turkiy tilshunoslikda esa I.Kenesbayev, G'.Musabayev, A. Hasenov, L.Nurjekeeva, R.Suvonova, Sh.Abdullayevlar metonimiya bo'yicha maxsus tadqiqot ishlarini olib borgan.

Qoraqalpoq ilmida esa metonimiya bo'yicha maxsus tadqiqot ishi hozirgacha qilinmagan. Biroq metonimiya bo'yicha adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yaratilgan badiiy vositalar o'rganishga bag'ishlangan ishlarda troplarning boshqa turlari bilan bir qatorda ko'rib chiqilib, uning badiiy matnga beradigan ba-

diiy bo‘yoqlari, emotsional-ekspressiv ta’sirlari haqida so‘z yuritilib kelmoqda. Metonimiyani adabiyotshunoslikdagi badiiy vositalar qatorida o‘rgangan olimlar sifatida N.Davqarayev, I.Sag‘itov, Q.Ayimbetov, N.Japaqov, M.Nurmuhammedov, Q.Maqsetov, B.Genjemuratov, A.Dosimbetovalarni ko‘rsata olamiz.

Metonimiyani qoraqalpoq tilshunosligida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish va uning asarlardagi funksiyalarini ochib berish kabi masalalar bilan shug‘ullanish, eng avval, N.A.Baskakovning nomi bilan bog‘lanadi. Undan keyingi davrlarda bu masala bilan yana ham to‘liqroq shug‘ullangan olimlar sifatida E. Berdimuratov, A.Bekbergenov, H.Hamidov, E.Allanazarov, Sh.Abdinazimov, T.Jumaboyev, B.Yusupovalar, G.Qarliboyeva va boshqalarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Troplar, shu jumladan, metonimiya masalasi bu barcha tillarda mavjud bo‘lgan va turli yo‘nalishlar nuqtayi nazaridan o‘rganilgan masala hisoblanadi. Biz ham yuqorida ko‘rsatilgan olimlarning ilmiy ishlari asosida metonimiya masalasining esse matnlarida ifodalanish usullarini va metonimiyalarning semantik-stilistik funksiyalarini tahlil qilib o‘tdik. Ishimizda lingvistik metodlarning: lingvistik tahlil: semantik-stilistik, qiyosiy, struktur-grammatik, sintezlash kabi turlaridan foydalandik.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Metonimiya – ikki predmet yoki hodisaning o‘zaro ichki yoki tashqi aloqasiga ko‘ra ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan so‘zlar [1;79-b.]. Bu termin yunoncha metaphora (siljish) degan so‘zidan kelib chiqqan [2;78-b.]. Ya’ni, bunda ko‘chma ma’noga o‘tuvchi so‘z asosiy ifodalanayotgan tushuncha bilan qandaydir bir tavsif orqali bog‘liq bo‘lib keladigan va birining o‘rniga ikkinchisi almashtirilib qo‘llanilishi orqali dastlabki ma’nosini to‘liq tushuntirish imkoniyatiga ega bo‘lgan so‘z ko‘chishi usuli. Bunday hammaga tanish bo‘lgan tushunchaning asosiy atamasini yangicha nom bilan qayta atab, metonimiyani hosil qilishning natijasida o‘ziga xos bir yangi semaning qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, metonimiya tilda o‘z semantikasiga, uning hayotiy zaruratiga mos lug‘at tarkibining tarixiy rivojlanishi jarayonida so‘z ma’nosining kengayishiga, funksional rivojlanishiga sabab bo‘ladigan semantik hodisalardan biri degan so‘z.

Metonimik munosabatning paydo bo‘lishi haqida olimlar hali to‘liq bir ta’rifga kela qolgani yo‘q. Ular dastlabki tushuncha bilan yangi metonimik vazifada qo‘llaniladigan so‘zlarning paydo bo‘lishidagi semantik ma’nolarni va ularning o‘zaro bog‘liqlik xarakterlarini har xil qilib tushuntirib kelmoqda. Xususan, qoraqalpoq tili leksikologiyasini maxsus o‘rgangan professor E.Berdimuratov o‘z ishlarida metonimiyalarning ifodalanish usullarini, asosan, katta 3 guruhga bo‘lib o‘rgansa [2;82-b.], A.Bekbergenov 4 turini [1;79-b.], Ajiniyoz shoir asarlarining tilini semantik-stilistik jihatdan tahlil qilgan G.Qarliboyeva metonimiyalardagi o‘zaro semantik bog‘lanishning 5 turini ko‘rsatib o‘tadi [8;130-b.]. Olim R.Suvonova o‘zbek tilida metonimik xizmatdagi so‘zlarning semantik xususiyatlari haqidagi fikrlarini shu so‘zlarning morfologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘lagan holda, tildagi metonimik xizmatdagi so‘zlar, ko‘pincha, ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe’l so‘z turkumlariga xos so‘zlar yordamida yuzaga chiqishini aytsa [5;25-b.], qozoq tilidagi metonimiyalarni maxsus o‘rgangan L.Nurjekeeva ot, sifat, son, fe’l, olmosh, modal, tanlanma va taqlid so‘zlardan ham metonimik ma’no ifodalashda foydalanilishini ko‘rsatadi [6;39-b.]. Rus tilidagi metonimiyalar bo‘yicha tadqiqot olib borgan A.Brix esa metonimiya xizmatida qo‘llaniladigan so‘zlarni, dastlab, ikki katta guruhga: ot va sifatlarga bo‘ladi-da, shu har bir guruhdagi so‘zlarni o‘z semantikasiga qarab, mayda guruhlarga ajratib chiqadi [10;12-b.].

Qoraqalpoq tilidagi esse matnlari tarkibidagi metonimik usulning ifodalanish xususiyatlarini yuqoridagi olimlarning fikrlari asosida ko‘rib chiqqanimizda, quyidagi natijaga erisha oldik.

1. Qoraqalpoq tilidagi esse matnlaridagi metonimiya usulidagi so‘zlarning morfologik ifodalanish holati bo‘yicha turlari:

1.1. Ot so‘zlar metonimiya sifatida qo‘llaniladi. Esselar tarkibidagi ot so‘zlar orqali ifodalangan metonimiyalarni tahlil qilganimizda ham shuni payqay oldik, u ham bo‘lsa metonimik xizmatda otning turli leksik-grammatik turlari qo‘llanilish xususiyatiga ega bo‘lib keladi. Shuning uchun ham bu guruhni yana bir necha guruhga bo‘lishni ma’qul ko‘rib turibmiz:

a) egalik otlari orqali ifodalangan metonimiyalar: *Jol-jónekey* ***Gurdjiyevtı*** *oqıdım. ...Eger birew seniń zeynińe tiyse, ózim qara “****Volga****” menen jetip baraman,–dedi. 1983-jılı “****Jańǵırıq****”tı súwretke alarda, ol biziń úyde boldı (O.Ábdiraxmanov “Mırzanıń isi” essesi).* ***Berdaq penen Abay, Pushkin menen Maqtımqulı, Ǵabdulla Toqaydıń bir tomlıǵı*** *bul at dorbada birge jattı (I.Yusupov. “Shayırlıq haqqında shamalı sóz” essesi). ...Úyine barǵannan keyin, shay iship, awqatlanıp otırıp* ***“Vremya”*** *kórip aladı (I.Yusupov. “Júreklerge jol izlep” essesi). Túrli áwladtaǵı qálemkeshler qatarında meniń shayırlıq ómirim de bárhá usı “****Ámiwdárya****”nı jaǵalap kiyatırıptı (I.Yusupov. “Súyiklim ápiw et meni, “Ámiwdárya” jurnalı” essesi)* ***“Bul qanday sezim”*** *ádebiyatta payda bolǵalı bul gúrrińdi oqıp, tek men qusap jazbay júrgenler ǵana sher-*

*mende emes. ...**Belinskiydi** oqısań, óziṅdi jaqsı tanıp alar ediṅ (Sh.Usnatdinov. "Azat Berdishev fenomeni" essesi);*

b) ommaviy otlar orqali ifodalangan metonimiyalar: *Vilma B. sonıṅ ala sabaqlarınan úlgere almaǵanı ushın **konservatoriyanı** qoyıwǵa májbúr boldı (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıṅ isi" essesi). ...Soṅ **keshegiden qalǵan sanların** kóreyin dep oqıw zalına keldim (Sh.Usnatdinov "Azat Berdishev fenomeni" essesi). **Qızıl imperiya** qıyrap jańa zamannıṅ jańa tártibi turmısqa ene baslaǵanda Qudaysız filosoflar qattı albırawǵa tústi (K.Smamutov. "Allanıṅ rehimi – ananıṅ mehri" essesi). Imtixan kitapshama dáslepki **"ayrıqsha" bahası** qondı (T.Orashbayev. "Gawhar tas" essesi). Jerge bir náwbet, elge bir náwbet degendey, diyqannıṅ júzine qan juwırıp, **dásturxan** tolısa basladı (O.Ábdiraxmanov. "Ótmishtiṅ máńgiligi" essesi). Xalıqqa tanılǵan kórnekli adamlar bizlerdey **piyadalarǵa** qaraǵanda anasınan ana ǵurlım artıqmash tuwıladı ǵoy (K.Smammutov. "Jaqsı adamlardıṅ jıllı alaqanı" essesi). OOO qanday danalıq! Átteń, adam balasınıṅ nalası sirá **kókke** jetpegen (T.Qayıpbergenov. "Túrkiynama" essesi).*

1.2. Sifat so'zlardan ifodalangan metonimiyalar: *Ol Niele menen tórt jıldan beri tıǵız baylanısta bolıp, onı ata-anasınan bezdirip, óziniṅ **"tilsiz máńgúrine"** aylandırıp alǵan edi. ...Men Vilnyusta Mırzanıṅ qartayǵan anası tuwralı sorastırıp, onıṅ "psixoregulyatordıṅ" **sadıq janashırlarınıṅ** biriniṅ qolında ekenin bilip aldım. ...**Oqımıslılar** ózlerinshe "payǵambar" izlegeninde Mırzadan qolaylı adam tabılıwı shamalı (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıṅ isi" essesi). Bul oylap tabılǵan siyasatshıl metod **talantlılardıṅ** erkinligin shekledi, órisin tarayttı (I.Yusupov. "Ruwxıy mádeniyat ıqlımları haqqında oylar" essesi). Aramızǵa bir **nákás** aralasıp, onı bizden, bizdi onnan qızǵanıp, túrli bále-máter islerdi islep, shuǵıllıq isin gújitken (T.Masharipova. "Barmısań bul jerdiṅ júzinde?!" essesi).–Men aq patshanıṅ taxttan qulatılǵan kúnin aytıp atırman. –Qaysı? Anaw **qazaqkskiydegi** Aqpatshanıṅ ba? (T.Masharipova. "Bayawboslıq" essesi). Úlken ójirenıṅ ishi gileṅ aqsaqallar, basshı jumısta isleytuǵın **úlkenler**, ulama-mollalar menen tolı eken. (T.Qurbanbayeva, "Aqsaqal" essesi). Men usı payıtta otawdıṅ ishine kóz juwırtıp bolıp, **ǵarrıǵa** názer saldım (M.Ibragimov. "Aq otaw" essesi).*

1.3. Son va ravish so'zlardan ifodalangan metonimiyalar: *...Men **onınshını** ortasha **úshke** pitkerdim, soṅ oqıy almadım. ...Men onıṅ aytqanlarınıṅ **50 procenti** ótirik ǵoy, degen gúman menen qaradım. (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıṅ isi" essesi). "**Ámiwdaryanıṅ**" barlıq sanların kórip shıqtım. Onda Tólektiṅ qosıqlarına kewil bólińkiredim. **Bir-ekewinen** basqası unamadı (Sh.Usnatdinov. "Azat Berdishev fenomeni" essesi). Birinshi jazǵanıńa-aq **5 qoyıwǵa** bolatuǵın edi. ...Ilim kandidatı degenlerdiṅ ózi **bir júz qırq manat** alıp júr (K.Smammutov. "Jaqsı adamlardıṅ jıllı alaqanı" essesi).*

1.4. Fe'l so'zlardan ifodalangan metonimiyalar: *...Men jaqın jıllarda onıṅ **ishkenin** kórgenim joqpan. ...Turpayılıǵı, júziniṅ qalqıńqılıǵı, jıyrıqlanǵan kiyimleri Abaydıṅ qádimgi vokzaldaǵı **jatıp isherlerden** bir eli kem emesligin kórsetti (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıṅ isi" essesi). ...**Oqımay júrip jazatuǵınlardı**, ásirese, házirgi dáwirde oziq oylı jámiyet oqımaydı (I.Yusupov. Búginligi dúnyanıṅ anaw ya mınaw múyeshinde **adamdı adam óltirmegen yamasa oq atılmaǵan** kún joqlıǵın kóz aldıma keltirmesem, Allataala dúnyadaǵı adamlardı tazalawǵa qaytadan tayarlıq kórip atır ma? (T.Qayıpbergenov. "Túrkiynama" essesi).*

1.5. Modal, juft (tańlaq sózler) va taqlid so'zlardan ifodalangan metonimiyalar: *Ol nasharlardı kontaktlı, erkeklerdi kontaktsız, **"mázi salawmaáleykumlerdi"** alıstan telefon-aq "emledi" ..."Ishińnen **ǵıdır-bıdırdı** sóylep, awzıṅdı jıbırlatıp, ayta berseń boldı"-dedi Jollı Nawrızov maǵan "quran" úyretkende. ...Onıṅ aytıp otırǵanınıṅ barlıǵı **bılshıldı** ekenin eskertti (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıṅ isi" essesi). Iblistiṅ **gew-gewi** menen onıṅ kórsetken daraǵınan jemis alıp jeydi. **Bereket tapqırlar**, balam tınımsızlaw, kórdińiz be, qasıńızdan alısqa oynap ketipti (T.Qayıpbergenov. "Túrkiynama" essesi).*

Morfologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan yuqoridagi misollarimizdan olinadigan xulosa sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin: 1) metonimik faoliyatda tilimizdagi ma'noli so'z turkumlarining barchasi ham qo'llanishi mumkin; 2) metonimiya xizmatidagi ot so'z turkumlari gapda mantiqiy shaklda ifodalangan ikkinchi bir otning ham ma'nosini qo'shib anglatib keladi; 3) otdan boshqa so'z turkumlari metonimik vazifada qo'llanilganda, dastlab, substitutsiya hodisasiga uchraydi-da, bir vaqtning o'zida, ikki xil so'z turkumining (o'z ma'nosini va mantiqiy ma'noda qo'llanilayotgan ot so'zning) ma'nosini anglatib keladi.

2. Qoraqalpoq tilidagi esse matnlaridagi metonimiya usulidagi so'zlarning dastlabki ma'nodagi so'z bilan semantik yaqinligi, tushunchalar orasidagi o'zaro bog'liqlik holati bo'yicha metonimiyalarning turlari:

2.1. Asosiy ma'nosi bilan metonimik ma'nodagi so'zning joylashgan o'rniga asoslangan metonimiyalar: *Brigadirler oqıwshılardı **oqıp atırǵan jerinen atızǵa** quwıp jibergen waqıtları da boldı (Á.Paxratdinov. "Bárha awılımdı saǵınaman" essesi). ...Abay yanvardıṅ ayaqlarında **Moskvaǵa** telefon urıp, Vladimir Pestrecov, Grigoriy Bushmakindi birimlep shaqırttı. ...Meni burıńǵıday hesh nárse qızıqtırmadı,*

hátteki ***instituttan*** *da jalıǵıp kettim. ...Bizlerdiń dáslepki ushırasıwlarımızdıń mánisi – ózlerimiz karate menen shuǵıllanǵan soń* ***Shıǵıstı*** *kóbirek úyreniw,* ***Shıǵısqa*** *baylanıslı barlıq nárselerdi biliwden ibarat edi. (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıń isi" essesi). Ol áwladlar sanasına adamgershilik mádeniyatı tek* ***Batısta*** *ǵana rawaj tapqan, al* ***Kúnshıǵıs*** *ázeliy qalaq bolıp kelgen hám ele solay degen uǵımdı sińdiriw menen shuǵıllandı (I.Yusupov. "Ruwxıy mádeniyat ıqlımları haqqında oylar" essesi). "Jeńge, meni búrge jep tawısa almaydı, mına Sharapqa qıyın" degeni há demey* ***Nókiske*** *tarap ketti. Jurnal satıwǵa shıǵarılıp,* ***úylerge*** *tarqatılǵannan keyin Azattan bir gáp kútip júrdim (Sh.Usnatdinov. "Azat Berdishev fenomeni" essesi). ...****Nájimniń elatınanman, massagetpen*** *desesh?! ...****Keń zaldıń ishi*** *qábiristandaǵıday jım-jırt bola qaldı (K.Smammutov. "Jaqsı adamlardıń jıllı alaqanı" essesi). Qaratawdaǵı reńli metallar alınatuǵın ruda* ***Nawayıǵa*** *jónetilmekte (O.Ábdiraxmanov. "Ótmishtiń máńgiligi" essesi). ...Siz onıń emlewxanaǵa kelgenin kórmedińiz. Izimnen bir talay zat apardı.* ***Pútkil balniysa*** *bólisip jedik! (T.Masharipova. "Kempir oqıwshım" essesi). Qapı zárre jabılǵanda,* ***shep qaptalım*** *shanshıp ketti (T.Masharipova. "Bayawboslıq" essesi).*

2.2. Xususiy otlarning metonimiya hodisasida qo'llanilishi. Bunda asosiy tushunchaning subyekti yoki muallifi sifatida ishlatiladigan atoqli otlar qo'llaniladi: *Olar onlaǵan adam jıynalısıp, kinoteatrda* ***"Xoshlasıw"dı*** *kórdi. ...Sol ushırasıwlarda* ***Radneshti*** *dawıslap oqıp, onıń pikirlerin maqtastıq....****"Óli janlar"ındaǵı*** *Nozdrevtiń ójireden shıqpay, awqattı da aynadan aldırıp, ózi menen ózi soqta oynap otırǵanları kóz aldımda elesledi. ...Birge Talǵattıń densawlıǵı ushın* ***"Vermut"*** *ishtik. (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıń isi" essesi). ...Al endi* ***Blok, Esenin, Raynis, Tuvimlerdi*** *túrki tillerge awdarǵan menen, olardı kúshli shayır sıpatında moyınlatıp bereket taba almaysań, awdarma jaqsı shıqpaydı (I.Yusupov. "Júreklerge jol izlep" essesi). ...Al,* ***Chaykovskiydı*** *ol atqara almaydı... (I.Yusupov. "Súyiklim ápiw et meni, "Ámiwdárya" jurnalı" essesi). ...Ótken jılǵı* ***"Ámiwdárya"*** *unamadı. Ótken jılǵı* ***Ibrayım*** *unadı (Sh.Usnatdinov. "Azat Berdishev fenomeni" essesi). –Bunı sennen kútpegen edik,-dedi direktor bir waqıtta kózin* ***"Robinzon Kruzo"nıń*** *muqabasındaǵı súwretlerden úzbey otırıp (T.Qurbanbaeva. "Aqsaqal" essesi). Ústi ashıq uzın qara* ***"ZIM"*** *iyesinen ayırılǵan tulparǵa qusaydı (K.Smammutov. "Jaqsı adamlardıń jıllı alaqanı" essesi).*

2.3. Asosiy ma'nosini uning tashqi qobig'i, idishining turi bilan qayta nomlash orqali paydo bo'ladigan metonimiyalar: *Al, ballar* ***"aq belbewge"*** *deyin eristi, biraq bul dárejeler hesh jerde rásmiy belgilenbedi. ...Jigit sońǵı pullarınan sıptay bolıp,* ***tramvayǵa*** *tólewtuǵın úsh tıyın tabılmay VUZ gorodqa piyadalap qayttı. ...Azan menen bes adamǵa bir* ***shiysheden*** *iship ya bazarǵa, ya Sultan babaǵa baramız. ...Abay menen Mırzanıń densawlıǵı ushın sırtınan* ***qadaqlar*** *kóterdik (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıń isi" essesi). Bala-shaǵalar qonaq baratuǵın úylerge* ***dásturxan*** *beriwge tayarlap atır. Geyde bir* ***qazannan*** *on bes, on jeti adamnan da kóbirek bolıp awqatlanar edik (T.Qurbanbaeva."Aqsaqal" essesi).* ***Tabaq*** *aldılarına kelerkelmesten oǵan dárhal umtılıp, oǵan qol urıwǵa qolaylasa beredi (E.Ótepbergenli. "Qıdır ata qarǵaǵan qız" essesi). Kózlerimdi ashsam, betime úńilip turǵan* ***aq xalatlı*** *úsh adamǵa kózim tústi (K.Smamutov. "Allanıń rehimi – ananıń mehri" essesi).*

2.4. Metonimiyalarning asosiy tushunchaning turli tavsifiy (xulq-atvor, tashqi ko'rinish) belgilari orqali yaratilishi: *...Biraq, negedur ǵayıptan sharapat izlep,* ***kózi ashıqlarǵa*** *ilajı barınsha tabınǵan* ***nadanlar*** *ne ushın Mırzaǵa barǵan? ..Aqırı, eger de ol, bir ayrıqsha kúsh bolsa, barlıq jerde, xalıqtıń arasında,* ***mujiklerdiń*** *arasında duslasıwı kerek ǵoy. ...****Ábeshiyler*** *ekstrasenslerge talap bar jerdi ǵana mákanlay alǵan edi (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıń isi" essesi). Átteń, jańa ǵana* ***kúsh-ǵayratqa tolǵan bayǵustı*** *ashshı tágdir óz iskenjesine aldı (M.Ibragimov. "Aq otaw" essesi). Búginligi biz kórip júrgen* ***qara deneliler*** *onday biyádepler emes...* ***Qúdiretli kúshli*** *endi Ázireyil perishteni tapsırma berdi (T.Qayıpbergenov. "Túrkiynama" essesi). Bul qatlamnıń adamları tiykarınan ólesi* ***ashkóz baylar*** *hám ólesi* ***jaman jarlılar****, kórgenleri bárha iyt kúni (E.Ótepbergenli "Qıdır ata qarǵaǵan qız" essesi).* ***Bujır bet chekist*** *durıs aytıptı. Tamashanıń úlkeni aldımda eken. (K.Smamutov "Jaqsı adamlardıń jıllı alaqanı" essesi)*

2.5. Metonimiyalar ma'lum bir subyektgagina xos bo'lgan turli belgilar orqali ham hosil qilinadi. Boshqacha aytganda, bu turdagi metonimik faoliyatda qo'llaniladigan so'zlar subyektdagi turli jismoniy kamchilik-nuqsonlarning, ijtimoiy statuslarning ma'nosini ifodalash orqali qo'llaniladi: *Men seni Moskvaǵa aparıp,* ***náhánler*** *menen tanıstıraman. ...Bul xat boyınsha* ***obkom*** *bizlerge járdem bergen joq. ...Biraq, jası ortadan álleqashan ótip ketken* ***áshirepiniń*** *jalǵız ózi kele almaytuǵını tuwralı da sóz boldı. (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıń isi" essesi). ...Zachyetkamda "bes" bahası tur edi.* ***Zaochnikke*** *bahanıń áhmiyeti az (T.Masharipova. "Ol menıń ustazım edi" essesi). –Mına* ***báleden*** *qutqarıń,* ***úyde bir kempir, dúzde bir kempir****, óletuǵın boldım (T.Masharipova. "Kempir oqıwshım" essesi). Joldas aǵanıń* ***payǵambar jasına*** *shıqqan merekesine bardım (T.Qurbanbaeva. "Aqsaqal" essesi). Kelin-kúyew* ***akademiktiń*** *músini aldına gúl sheńberin qoydı (O.Ábdiraxmanov. "Ótmishtiń máńgiligi" essesi). Úlken ójireniń ishi gileń aq-*

saqallar, basshı jumısta isleytuǵın ***úlkenler****, ulama-mollalar menen tolı eken (T.Qurbanbaeva. "Aqsaqal" essesi)* ***Ilim kandidatı degenlerdiń ózi*** *bir júz qırq manat alıp júr (K.Smammutov "Jaqsı adamlardıń jıllı alaqanı" essesi).*

2.6. Harakat bilan uning bajaruvchisi, shu jarayondagi harakat va uning vositasi orasidagi bog'lanish asosida metonimiyalar yaratiladi: *Abay ózine* ***shamalı qır kórsetkenler menen pul beriwden bas tart-qanlarǵa*** *karatistlerdi jiberip, ózi tóbeleske aralaspadı. ...Azǵana daw kóterilip edi, endi doslastıq, mine jarasıw ushın* ***qaǵıstırajaqpız.*** *...Álbette, kolxozdıń paxta planın* ***"qosıp jazıwda"*** *Mırzanıń tikkeley qatnası bar desek, kúlkili bolar edi. Ol nasharlardı kontaktlı, erkeklerdi kontaktsız,* ***"mázi salawmaáleykumlerdi"*** *alıstan telefon-aq emledi. ...****Motocikl*** *irklimesten ótip ketti, izinde kiyatırǵan mashina toqtap, "gezendelerdi" mingizdi (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıń isi" essesi). Kitapxanaǵa barıp gazetalarda* ***jurttıń aytıp atırǵanı*** *menen tanısa basladım (K.Smammutov. "Jaqsı adamlardıń jıllı alaqanı" essesi). Qaraqalpaqlar haqqında sátsiz baha aytsa,* ***qolımdı qan qılıwǵa*** *tayarman (T.Qayıpbergenov "Túrkiynama" essesi). Men úyde basshıman,* ***tapqanımdı*** *úyge alıp kelemen (T.Masharipova. "Ómir gúli" essesi) Bes-altı jılda* ***qorǵap alasań****, ózim bas-kóz bolaman (T.Orashbaev. "Gawhar tas" essesi).* ***Alǵanıńdı*** *sırtınan tanıytuǵın edim... (T.Masharipova. "Bayawboslıq" essesi). ...****Qılısh-qalqannıń shaqıldısı****,* ***atlardıń dúsirlisi*** *hám* ***ashshı kisnewleri****,* ***analardıń sıńsıp****,* ***nárestenińshırqırawı*** *esitiledi (I.Yusupov. "Ruwxıy mádeniyat ıqlımları haqqında oylar" essesi). Dáslep* ***jıqqanǵa da, jıǵılǵanǵa*** *da sıylıq berip, xoshametlendi (T. Qurbanbaeva "Aqsaqal" essesi). Baǵdarlamanı tawısıp úyge kelgennen soń da túnniń yarımına deyin* ***jazıw mashinkasınıń shıqıldısı tınbaydı*** *(T.Masharipova. "Qúden" essesi).*

2.7. Asosiy tushunchaning materiali, kelib chiqish manbai ma'nosini bildiruvchi so'zlar metonimik usulda yangi ma'no anglatish uchun ishlatiladi: *Afruza iyman júzli, hámmege qol-kómegin berip júretuǵın haqıyqat* ***Biybipatpanıń tuqımı*** *edi (T.Masharipova. "Ómir gúli" essesi). ...Hámme kiyimdi de tigip kete beretuǵın edi, ya ólsheytuǵın* ***santimetri*** *joq, tek qarıslap ólsheydi. ...Hámmeniń kiyetuǵını tek* ***shıt****. (T.Qurbanbaeva "Aqsaqal" essesi). Olar qaytadan jiyinlarga barip waz ayta basladi.* ***Teleekranlardı*** *iyeledi (K.Smamutov. "Allanıń rehimi – ananıń mehri" essesi). ...Biziń maqsetimiz – pák adamlardıń namısın* ***mırzashılıqtan*** *qorǵaw ibarat ekenin bilip alasız (O.Ábdiraxmanov. "Mırzanıń isi" essesi). Quday qosqan* ***birinshi juptılarǵa*** *bas iyip, qutlı bolsın aytıptı Iblis (T.Qayıpbergenov. "Túrkiynama" essesi)*

Metonimiyalarning paydo bo'lishidagi semantik ma'nolari haqida qo'lga kiritilgan natijalarimiz sifatida quyidagi fikrlarni aytishimiz mumkin: metonimiyalarni hosil qiluvchi so'zlarning semantik ma'nosi bilan asosiy e'tiborga olingan, mantiqiy (yashirin) ma'noda qo'llovchi so'zlarning o'rtasida o'zaro bevosita aloqaga asoslanishi kerak. Bu aloqani topish uchun so'zlovchidan (mualliflardan) ifodalanayotgan so'zning barcha semantik ma'nolarini bilish va shularning ichidan o'quvchiga tushunarlisini, bayon qilinayotgan fikrning kontekstiga mos keladiganini o'rinli ishlatish talab etiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, metonimiya bu tilning leksik tarkibini boyitib, leksemalarning polisemik xilma-xilligiga ega bo'lishini ta'minlovchi lingvostilistik vositadir. Metonimiyalar matnga (esse matnlariga) o'zining badiiy-tasviriy ta'sirini ko'rsata oladi, fikrning qisqa, lo'nda shaklda bayon etilishini ta'minlaydi. Lisoniy iqtisod hodisasini vujudga keltiruvchi birlik sifatida nutqning qisqaligi, inson energiyaning o'rinli sarflanishi uchun xizmat qiladi. Metonimiyaning bu xususiyatlari birmuncha erkin bo'lgan esse janrining talablariga to'liq mos keladi. Shuningdek, o'quvchining fikrlashi uchun ham alohida rol o'ynaydi, chunki metonimiya qo'llanilgan kontekstdagi muallifning o'ylab topgan yangi leksemasini tushunish talab etiladi. Ushbu xususiyatlari metonimiyaning qoraqalpoq tilshunosligida maxsus o'rganilishidagi dolzarbligini ta'minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Бекбергенов А. Қарақалпақ тилиниң стилистикасы. Нөкис, "Қарақалпақстан", 1990.

(2). Бердимуратов Е. Ҳәзирги қарақалпақ тили. Лексикология. Нөкис, 1994.

(3). Ш.Абдиназимов. Лингвопоэтика. Тошкент, "Ёшлар" нашриёт уйи, 2020.

(4). Бердимуратов Е. Әдебий тилдиң функционаллық стиллериниң раўажланыўы менен қарақалпақ лексикасының раўажланыўы. Нөкис, "Қарақалпақстан". 1973.

(5). Сувонова Р.А. Ўзбек тилида метонимия. Тошкент, 2003.

(6). Нұржекеева Л. Метонимияның лингвистикалық табиғаты. Алматы, 1992.

(7). Бирих А. Метонимия в современном русском языке. "München". 1995.

(8). Г.Қарлыбаева. Әжинияз шығармалары тилиниң семантика-стилистикалық өзгешеликлери. Нөкис, "Қарақалпақстан", 2017.

(9). G.Aynazarova. Teoriyalıq til bilimi tiykarları. Nókis, QMU, 2022.